



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Jizzax viloyati  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**


# Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik




## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **75,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **1457,7** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **22909** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **111,3** foizga ko'p demakdir.

## 2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

### Savdo



### Sanoat



### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



### Qurilish




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **816** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **714** ta, sanoatda **513** ta, qurilishda **116** ta, yashash va ovqatlanishda **144** ta, axborot va aloqada **44** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

## Savdo

29,8%



## Sanoat

18,2%



## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

20,3%



## Qurilish

10,4%



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,1%



## Tashish va saqlash

2,8%



## Axborot va aloqa

1,1%




## Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2%




## Boshqa faoliyat turlari

9,5%



1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021 y. yanvar-iyun

■ 2022 y. yanvar-iyun


## 2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – 22,2 %, Sharof Rashidov – 12,2 %, G'allaorol – 10,4 %, Zomin va Do'stlik–8,6%, Baxmal – 7,7 % Forish–7,3 % tumanlar hissalariga to'g'ri keldi.




# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
816 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida  
714 ta

Sanoatda  
513 ta

Qurilishda  
116 ta




# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 21,2 birlikni tashkil etdi.



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra\*




2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 6,2 birlik, Sharof Rashidov tumanida 3,3 birlik, G'allaorol tumanida 1,9 birlik, Zomin tumanida 1,7 birlik, va Forish tumanida 1,5 birlik, Baxmal tumanida 1,3 birlik tashkil etgan.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022 - yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 46,9 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 43,4 % ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

### 2022 yilning yanvar-iyun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2022 – yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Paxtakor tumanida 99,7 %, Sh.Rashidov tumanida – 66,9 % ni, eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida – 7,4 % ni tashkil etdi.





## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **208,1** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **86,4 %** ini tashkil etdi.



2022 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal, Mirzacho'l, Sharof Rashidov va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Forish va G'allaorol tumanida – 99,9 %, Paxtakor tumanida – 90,3 va eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida – 11,5 % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2627,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (1031,6 mlrd. so'm) Jizzax shahar (595,0 mlrd. so'm), Forish (227,4 mlrd. so'm), Paxtakor (196,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (133,7 mlrd. So'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Zafarobod tumanida (31,9mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **51,0** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod (100,0%), G'allaorol tumani (98,0%), Forish tumani (91,4%), Paxtakor tumani (67,5%), Zomin tumani (54,8%), ni tashkil etdi. Zafarobod tumani (4,0%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4158,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **76,9** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,8%** ga o'sishi kuzatildi.

## 2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (1209,7 mln. so'm), Sharof Rashidov tumani (742,8 mln.so'm), Zomin tumani (606,2 mln.so'm), Baxmal tumani (337,3 mln. so'm), G'allaorol tumani (324,9 mln.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1614,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,9 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **107,4 %** ni tashkil qildi.


## 2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (612,5 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (286,3 mlrd. so'm), Zomin (135,2 mlrd. so'm), G'allaorol (111,1 mlrd. so'm), Paxtakor (87,2 mlrd. so'm), Zarbdor (72,2 mlrd. so'm) hamda Baxmal (110,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

■ hajm, mlrd. so'm    ● o'sish sur'ati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2186,9** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **59,0 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,0 %** ni tashkil qilgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Jizzax shahri (548,2 mln. soʻm), Sharof Rashidov (396,7 mln. soʻm), Gʻallaorol (242,4 mln.soʻm), Zomin (220,5 mln. soʻm), Baxmal (169,5 mln. soʻm), Forish (126,0 mln. soʻm) va Zarbdor (100,3 mln. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.


2022- yilning yanvar- iyunida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati






## 2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.


2022-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.

2022-yil II - chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 751 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 248 (29,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 458 (57,1%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 26 (17,6%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,5 % (99 ta), sanoatda – 13,9 % (102 ta), qurilishda – 10,2 % (75 ta), savdoda – 36,6% (268 ta), xizmatlar sohasida – 25,8 % (188 ta)ni tashkil etdi.

2022- yil II - chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (235 ta), Sharof Rashidov (102 ta), G'allaorol (63 ta), Forish (61 ta), Zomin (59 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning II - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II - choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 33,9%ni, xizmatlar sohasida 25,7%ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 22,6%ni sanoatda 11,3% ni, qurilishda 6,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda 38,9 %ni, xizmatlar sohasida 28,4%ni, sanoatda 14,7% ni tashkil etdi.

## 2022- yilning II - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022 - yilning II - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 32,4% ni, xizmatlarda 23,7%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 22,6% ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 40,0% ni, xizmatlar 27,3%ni, qurilishda 12,7 %ni, sanoatda 12,7% ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,2 %ni tashkil etdi.

